
FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN
ILMIY JURNAL



1/2026

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH

scientific-practical and methodological journal



№ 1/2026

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIRIYAT KENGASHI:
Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Ye.E. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva B.S. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova G.N. – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova O.G. – pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Umarova N.Sh. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova N.Z. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov X.X. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov M.R. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva S.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva M.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Z.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev A.N. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva G. M. – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova S.T. – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova M. B. – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Yuldashev S.R. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova D.B. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Ye.G. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Джексембаева Г.С. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Jalilov H.N.– psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Jalilov N.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vahobov A.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova M.M. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalilova R.R. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Sh.U. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Sh.F. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev J.Sh. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova F. X. – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

SHAXS KOGNITIV ONTOGENEZI VA AVLODLAR NAZARIYASI

L.S. Tursunov
O‘zbekiston Xalqaro Islomshunoslik Akademiyasi
Din psixologiyasi va pedagogika kafedrasi dotsenti, P.f.n.

Annotatsiya. Mazkur maqolada jahon hamjamiyati tomonidan keng muhokamalarga sabab bo‘layotgan avlodlar nazariyasining nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda avlodlar nazariyasiga ijtimoiy va etnopsixologik yondashuv asosida baho berilib, zamonaviy yoshlarning xulq-atvori, qadriyatlari hamda kognitiv rivojlanish xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, turli avlodlarning ijtimoiylashuv jarayoni, axborot muhiti va texnologik taraqqiyot ta’sirida shakllangan psixologik farqlari tahlil qilingan. Maqolada Jim avlod, Bebi bumerlar, “X”, “Y”, Zoomerlar, Alfa va Betta avlodlarining ontogenetik hamda psixologik xususiyatlari ilmiy manbalar asosida tavsiflangan.

Kalit so‘zlar: avlod, avlodlar, Jim avlod, Bebi bumerlar, “X” avlod, “Y” avlodi, Zoomerlar, Alfa avlod, Betta avlod, kognitiv, ontogenez.

Annotation. This article analyzes the theoretical and practical aspects of the generation theory, which has become a subject of extensive discussion within the global community. The study approaches generation theory from the perspectives of social and ethnopsychology, emphasizing the behavioral characteristics, values, and cognitive development of modern youth. In addition, the article examines the psychological differences among generations formed under the influence of socialization processes, information environments, and technological progress. The ontogenetic and psychological characteristics of the Silent Generation, Baby Boomers, Generation X, Generation Y, Zoomers, Alpha Generation, and Beta Generation are described based on scientific sources.

Keywords: generation, generations, Silent Generation, Baby Boomers, Generation X, Generation Y, Zoomers, Alpha Generation, Beta Generation, cognitive, ontogenesis.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты теории поколений, которая вызывает широкий интерес и обсуждение в мировом сообществе. Исследование рассматривает теорию поколений с позиций социальной и этнопсихологии, акцентируя внимание на особенностях поведения, ценностях и когнитивном развитии современной молодежи. Кроме того, анализируются психологические различия между поколениями, сформировавшиеся под влиянием процессов социализации, информационной среды и технологического прогресса. На основе научных

источников характеризуются онтогенетические и психологические особенности Молчаливого поколения, бэби-бумеров, поколений X и Y, зумеров, поколений Альфа и Бета.

Ключевые слова: поколение, поколения, Молчаливое поколение, бэби-бумеры, поколение X, поколение Y, зумеры, поколение Альфа, поколение Бета, когнитивный, онтогенез.

KIRISH

Shaxsning kognitiv ontogenezini anglash uchun insoniyatning filogeneziga nazar tashlab mulohaza yuritish xayrli ekanligi isbot talab etmaydigan haqiqat desak, xato bo‘lmaydi. Bashariyat bosib o‘tgan davrlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, barcha zamonlarda ham kelajak avlod tarbiyasiga alohida e’tibor qaratib kelingan. Buning sababi shundaki, katta avlod vakillari yosh avlod timsolida millat kelajagini aks ettira olganlar. Ammo shuni ham ta’kidlash lozimki, yoshlar o‘z ehtiyojlari va davr talabidan kelib chiqib, o‘z yo‘nalishlarini o‘zlari belgilab borganlar.

Har bir millatning kelajagi avlodlar o‘rtasidagi rishtaning samaradorligiga hamda qadriyatlarning davrga mutanosib tarzda uzatilishi va saqlanishiga bog‘liq. Avlodlar nazariyasi o‘zining murakkab tuzilmasiga ega bo‘lishiga qaramay, uni quyidagicha tavsiflash ijtimoiy psixologiyada amalga oshiriladi. Nazariyaning mohiyati shundaki, har bir avlod turli ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy sharoitlarga moslashadi hamda o‘z davrining qadriyatlarini rivojlantiradi. Bir avlod vakillari keyingi avloddan taxminan 20-25 yil bilan ajralib turadi. Shu sababli har bir avlod yangi sharoitlarda o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik rivojlanish bosqichini bosib o‘tadi.

Jamiyatning katta yoshdagi a’zolari o‘z yoshliklarida katta avloddan o‘zlashtirgan milliy qadriyatlarga amal qilganliklarini maqtab, hozirgi yoshlarning kamchiliklarini topib, ularni bo‘rttirib ta’kidlashlariga tez-tez guvoh bo‘lamiz. Aksar hollarda qariyalar “zamon o‘zgardi”, “hozirgi avlodni tushunib bo‘lmaydi” degan fikrlarni bildiradilar. Biroq bunday mulohazalarni yuritishdan avval yoshlarning xulq-atvori davr va zamon talablariga mos ravishda shakllanganini, ularning tarbiyasi ham shu jarayonlarga mutanosib ekanligini unutmaslik lozim.

Mazkur fikrlar talqini asosida “avlod” nazariyasini tushunish bizga ijtimoiy munosabatlar va qadriyatlar vaqt o‘tishi bilan qanday o‘zgarishini ko‘rish imkonini beradi. Avlodlar nazariyasi qanday ishlashini hamda har bir avlod boshqalardan qanday farq qilishini tushuntiradi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Jahon insonshunoslik va jamiyatshunoslik fanlari vakillarining mazkur masalaga munosabatiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, so‘nggi yillarda keng jamoatchilik tomonidan e’tirof etib kelinayotgan “avlodlar nazariyasi” amerikalik

yozuvchilar Neil Howe va William Strauss tomonidan ishlab chiqilgan. 1991-yilda ular Qo‘shma Shtatlar tarixini taniqli shaxslarning tarjimai hollari orqali kuzatib, tahlil etib, “Generations: The History of America’s Future, 1584 to 2069” nomli kitobini nashr etdilar. Unda mualliflar “avlodlar nazariyasi”ning poydevoriga tamal toshini qo‘ydilar va uni 1997-yilda nashr etilgan “The Fourth Turning” kitobida yanada kengaytirdilar.

Rus sotsiologi, Mintaqaviy tadqiqotlar markazi direktori Dmitriy Loboyko Lenta.ru nashriga bergan intervyusida avlodlar nazariyasini “o‘rta yo‘l nazariyasi”ning klassik namunasi sifatida baholab, bu fan va ommabop psixologiya o‘rtasidagi nozik muvozanat ekanligini ta’kidlagan.

Avlodlar nazariyasi “yakuniy haqiqat” emas. Strauss va Howe akademik tadqiqotchilardan ko‘ra ko‘proq publitsistlar bo‘lib, ularning konsepsiyasi haddan tashqari umumlashtirilganligi hamda empirik jihatdan yetarlicha tasdiqlanmaganligi uchun tanqid qilingan. Shu bilan birga, Neil Howe va William Strauss tomonidan ilgari surilgan “avlodlar nazariyasi” ma’lum tarixiy davr davomiyligi bilan bog‘liq holda izohlanganligini unutmaslik kerak.

Mazkur nazariyani tahlil etish ijtimoiy munosabatlar va qadriyatlar vaqt o‘tishi bilan qanday o‘zgarishini ko‘rish imkonini beradi. Avlodlar nazariyasi qanday ishlashini hamda har bir avlod boshqalardan qanday farq qilishini bilvosita va bevosita anglashga yordam beradi.

Avlodlar nazariyasi o‘zining stereotiplari va millionlab odamlarni turli shaxsiyatlar, tarixlar, ma’lumotlar va qadriyatlar bilan uyg‘unlikda yuzaga keltirishga uringani uchun ham tanqid qilingan, chunki ular bir vaqtning o‘zida shakllangan. Shunga qaramay, ushbu nazariya bizga texnologiya, geosiyosat, iqtisodiy yuksalish va pasayishlar, ota-onalik me’yorlari, ta’lim falsafalari, ommaviy axborot vositalari hamda insonlar yashab rivojlangan davr madaniyatining ijtimoiy-psixologik ta’sirini tasavvur qilish imkonini beradi.

Sotsiolog Dmitriy Loboyko ta’kidlashicha, “avlodlar nazariyasi qat’iy ilmiy tushuncha emas, balki jamiyat qanday o‘zgarib borayotganini kuzatish natijasida shakllangan yondashuvdir”. Shu sababli nazariyaga tanqidiy nuqtai nazar bilan qarash hamda avlodlarning o‘ziga xos madaniy xususiyatlari va qadriyatlari mavjudligini hisobga olish zarur.

Avlodlar nazariyasi qiziqarli yondashuv hisoblanadi, biroq shuni yodda tutish kerakki, har bir avlod tarkibida turli xil shaxslar mavjud bo‘lib, inson hayotining individual xususiyatlari va sharoitlari qat’iy tipologiyalarga to‘liq mos kelmaydi.

Avvalo, shuni unutmaslik lozimki, “avlodlar nazariyasi” - turli avlodlarning nima sababdan paydo bo‘lishini, ularni nima birlashtirishini va qanday o‘zgarishini tasvirlaydigan tadqiqot yondashuvidir.

O‘rta asr faylasuflari ham “otalar va o‘g‘illar” o‘rtasidagi farqlar haqida mulohaza yuritganlar va avlodlar almashinuvi masalasi XIX asrga kelib jiddiy muhokama mavzusiga aylangan.

Ijtimoiy tadqiqotlarning isbotlashicha, shaxslarning avlodga birlashishining asosiy xususiyati umumiy qadriyatlar va hayotiy tajribalar to‘plami bo‘lishi mumkinligiga ishonishgan. Agar odamlar yirik ijtimoiy yoki ommaviy voqealarni — urush, epidemiya yoki inqirozni boshidan kechirgan bo‘lsalar, bu holat ularning xatti-harakatlari, fikrlash tarzi hamda yashash tarziga ta’sir qilganligini ta’kidlaganlar.

O‘zbekistonda etnopsixologiya fanining tamal toshini qo‘ygan zabardast olimlardan M.M. Mamatov: “Har bir avlodning davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy sharoitiga mos bo‘lib tushadigan hamda uni o‘zida aks ettiradigan yosh avlodi bo‘ladi. Odamzot ongli hayot kechira boshlaganidan buyon vujudga kelgan urf-odatlar, marosimlar va udumlarning yashovchanligi yosh avlod ularni qanday aks ettirishi hamda ularga amal qilishiga bog‘liq bo‘ladi”, - deb ta’kidlagan.

Xususan, mamlakatimizning yetakchi psixologlaridan professor N.Sh. Umarova ta’kidlaganidek: “Jumladan, bir avlodga ta’sir qiladigan asosiy voqealar butun dunyo bo‘ylab yoki alohida mamlakatlarga ta’siri jihatidan keskin farq qilishi mumkin. Bunga sabab mamlakatlarning rivojlanish tendensiyalari turli vaqt oralig‘ida namoyon bo‘lishidir.”

TAHLIL VA NATIJALAR

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, quyida keltiriladigan avlodlar nazariyasi bir davlat tarixiga asoslangan bo‘lib, u boshqa mamlakatlarga to‘liq mutanosib emas. Har bir millatning o‘z madaniy kodi va har bir mamlakatning o‘z tarixi mavjudligini unutmaslik kerak.

Aksariyat insonshunoslik yo‘nalishida tadqiqot olib boradigan mutaxassislar fikriga ko‘ra, quyida keltirilgan avlodlarning davriy bosqichlari asosan AQSh davlati tarixiga mutanosib hisoblanadi.

Jim avlod

Jim avlod - 1928-1945-yillar oralig‘ida tug‘ilgan insonlar bo‘lib, ular intizom va mehnatsevarlik bilan ajralib turadi hamda bolalik va o‘smirlik davrida boshdan kechirgan murakkab tarixiy sharoitlarni o‘zida aks ettiruvchi barqarorlikka intilishadi. Buyuk Depressiya va World War II ushbu avlodning ijtimoiy-psixologik holatiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan.

RUDN universiteti iqtisodiyot fakulteti mutaxassisi Mariya Kormilitsinaning ta’kidlashicha: “Bu avlodning ko‘plab vakillari qashshoqlik va resurslar tanqisligi sharoitida tarbiyalangan, bu esa tejamkorlik va amaliylik uchun asos yaratgan. Ular

mehnatni juda qadrlashgan va uni maqsadlariga erishishning eng muhim vositasi deb bilishgan.”

Bu avlod vakillari davlatga xizmat qilishni va oila oldidagi majburiyatlarni zarurat deb bilishgan hamda qiyinchiliklarga qaramay, o‘z kasblariga sodiq qolishgan.

Bebi-bumerlar

Bebi-bumerlar 1946-1964-yillar oralig‘ida tug‘ilgan insonlardir. Post-World War II baby boom davrida tug‘ilish darajasi keskin oshgani sababli ushbu avlod shu nom bilan atalgan.

Ular iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy o‘zgarishlar va texnologik taraqqiyot davrida ulg‘aygan bo‘lib, nisbatan barqaror moddiy farovonlikdan bahramand bo‘lish imkoniyatiga ega bo‘lishgan. Ushbu avlodning asosiy qadriyatlari maqsadga intilish va ta’lim hisoblanadi. Ular o‘zini rivojlantirishga qiziqadi va ta’limni jamoaviy maqsadlarga erishish vositasi sifatida ko‘radi.

Iqtisodiy o‘sish va ta’lim imkoniyatlari tufayli o‘rta sinf sezilarli kengaydi hamda bu bebi-bumerlar uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Iste’mol shakllari ham o‘zgardi: insonlar turmush tarzi va shaxsiy qiziqishlarga ko‘proq e’tibor qaratishni boshladilar.

Yorqin kelajakka ishongan holda ular uy-joy va ta’limga faol sarmoya kiritdilar, bu esa iqtisodiyotning ayrim sohalari rivojiga hissa qo‘shdi. Voyaga yetgan sari bebi-bumerlar barqarorlik va an’analarni qadrlaydigan, o‘zlari yaratgan hayot tarzini himoya qiladigan avlodga aylandilar. Yoshligida ular ishtiyoqli va jasur bo‘lib, mavjud hayot tarzini o‘zgartirishga intilgan bo‘lsalar, ulg‘aygan sari aksincha, barqarorlikni faol himoya qila boshladilar.

“X” avlod

“X” avlod, shuningdek, “Xers” yoki “yo‘qolgan avlod” nomi bilan ham tanilgan bo‘lib, taxminan 1965-1980-yillar oralig‘ida tug‘ilgan insonlarni o‘z ichiga oladi. Ular raqamli inqilob va globallashuvning boshlanishiga guvoh bo‘lishgan, bu esa ularning ish va hayotga bo‘lgan munosabatiga ta’sir ko‘rsatgan.

Mustaqillikka intilish, ish va shaxsiy hayot o‘rtasidagi muvozanat hamda natijaga yo‘naltirilgan yondashuv ularni zamonaviy mehnat madaniyatini shakllantirishda ta’sirchan kuchga aylantirdi.

1980-yillarning oxiri va 1990-yillarning boshlarida boshlangan globallashuv to‘lqini dunyo xalqlarini yanada o‘zaro bog‘liq qildi. Savdo, sayohat va kommunikatsiya jarayonlari tezlashdi va soddalashdi. “X” avlod ushbu jarayonning boshida turdi. Ular an’anaviy bebi-bumerlardan pragmatizm va individualizm bilan farq qiladi hamda moddiy boylik va mustaqillikni qadrlaydi.

Ming yilliklar (“Y” avlodi)

Ming yilliklar yoki “Y” avlodi 1980-yillarning boshlari va 1990-yillarning o‘rtalari oralig‘ida tug‘ilgan insonlardir. Ular yangi ming yillikka bolalik yoki o‘smirlik davrida kirib kelishgan. Ushbu avlod vakillari smartfon va planshetlarda tezkor yozish qobiliyati sababli ba’zan “bosh barmoq avlodi” deb ham ataladi.

Bu avlod tezkor texnologik taraqqiyot va globallashuv muhitida shakllangan. Ular texnologiyani yaxshi bilishi, ochiq fikrliligi va martabaga yo‘naltirilganligi bilan ajralib turadi. Doimiy o‘zini takomillashtirish, bag‘rikenglik va atrof-muhitni muhofaza qilish ularning qadriyat tizimida muhim o‘rin tutadi. Ular kurslar, treninglar va seminarlar orqali malakalarini oshirishga hamda yangi ko‘nikmalarni rivojlantirishga intilishadi.

Bu avlod eski hayot tarzining o‘zgarishi va yangi turmush tarzining shakllanishi davrida ulg‘ayganligi sababli, erta mustaqillashgan hisoblanadi. Ular pragmatist va individualist bo‘lib, moddiy qadriyatlarni yuqori baholashadi hamda ko‘pincha maqsad sari qat’iyat bilan harakat qilishadi.

“Zoomerlar” (“Z” avlodi)

“Z” avlodi 1997–2010-yillar oralig‘ida tug‘ilgan bo‘lib, tom ma’noda raqamli dunyoda ulg‘aygan birinchi avlod hisoblanadi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va smartfon o‘yinlari ularning ongli hayotining ajralmas qismiga aylangan va bu ularning dunyoqarashi, qadriyatlari hamda xatti-harakatlarida chuqur iz qoldirgan.

“Z” avlodi texnologiyadan foydalanishda qulaylikka ega va undan intuitiv ravishda foydalanishni biladi. Mariya Kormilitsina ta’kidlashicha: “Zoomerlar tezkor axborot oqimiga va vazifalarni doimiy ravishda almashtirishga o‘rganib qolgan. Ular bir vaqtning o‘zida messenjerlarda suhbatlashadilar, faol o‘yinlar o‘ynaydilar va uy vazifalarini bajaradilar. Ular uchun ko‘p vazifalilik odatiy hol.”

“Z” avlodi zamonaviy jamiyatning kelajagi sifatida baholanadi. Ular global muammolarni hal qilish uchun yangi g‘oyalar, texnologiyalar va yondashuvlarni olib kiradi. Ularning ochiqligi, boshqa avlodlar bilan hamkorlikka tayyorligi va texnik ko‘nikmalari jamiyat rivoji uchun muhim omil hisoblanadi.

Shu bilan birga, ayrim tadqiqotchilar zoomerlarning bilim va xotiraga yondashuvi o‘zgarganini ta’kidlashadi: ular ma’lumotning o‘zini emas, balki uni qanday topishni eslab qolishga moyildirlar.

Alfa avlod

Alfa avlod odatda 2011-2024-yillar oralig‘ida tug‘ilgan insonlarni qamrab oladi. Bu avlod hali shakllanish bosqichida bo‘lib, raqamli texnologiyalarga to‘liq singib ketgani bilan ajralib turadi.

“Alfa” atamasi marketolog Mark McCrindle tomonidan taklif qilingan bo‘lib, yunon alifbosining birinchi harfi asosida yangi davr boshlanishi ramzi sifatida

qo‘llangan. Ushbu avlodning istiqbollari texnologik taraqqiyot, global o‘zgarishlar hamda ota-onalik va ta’limning yangi modellari bilan bog‘liq.

Ijtimoiy tarmoqlar va axborot almashish ilovalari bolalar uchun asosiy kommunikatsiya vositasiga aylanmoqda. Ular ekranlar orqali dunyo bilan muloqot qilishni o‘rganmoqda, bu esa ularning ijtimoiy ko‘nikmalari va muloqot haqidagi tasavvurlariga ta’sir ko‘rsatadi.

Biroq bolalarning gadjetlar va ijtimoiy tarmoqlarga qaram bo‘lib qolish xavfi mavjud bo‘lib, bu holat narsisizm va egoizmning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Yuzma-yuz muloqotning virtual muloqot bilan almashishi esa shaxslararo ko‘nikmalar va empatiyani zaiflashtirishi ehtimoli mavjud.

Mariya Kormilitsina ta’kidlashicha: “Muvaffaqiyatli rivojlanish va ta’lim texnologiyalardan foydalanishga muvozanatli yondashuvni, ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi tushunishni hamda to‘liq jismoniy va ijtimoiy rivojlanish uchun zarur sharoitlarni yaratishni talab qiladi.”

“Beta avlod”

“Beta avlod” deb 2025-2039-yillar oralig‘ida tug‘iladigan bolalar avlodiga aytiladi. Ular to‘liq raqamlashtirilgan dunyoda, algoritmlar va virtual sotsializatsiya muhitida yashaydilar. Masofaviy ish odatiy holga aylangan sharoitda onlayn munosabatlar oflayn muloqot kabi muhim bo‘lib qoladi.

Yangi avlod, ehtimol, neyron tarmoqlar va sun’iy intellekt kundalik hayotning ajralmas qismiga aylangan davrda ulg‘ayadi. Madaniyat, sog‘liqni saqlash va ta’lim kabi sohalarda ham sun’iy intellekt muhim rol o‘ynashi mumkin. Biroq bu jarayon insonlarga qanday ta’sir qilishini hozircha aniq taxmin qilish qiyin.

XULOSA

Avlodlarni jahon fan-texnika taraqqiyoti va ijtimoiy o‘zgarishlar nuqtai nazaridan nomlashga qarshi bo‘lmagan holda, o‘zbek milliy mentalitetining o‘ziga xos jihatlaridan yondashish maqsadga muvofiqligini ham unutmaslik lozim.

O‘zbek xalqi avlodlarining so‘nggi asrlarda bosib o‘tgan tarixiga nazar tashlasak, avlodlar sulolasini bog‘lab turuvchi halqaning naqadar mustahkam ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Har bir avlodning xulq-atvori jamiyat tizimidagi tub o‘zgarishlarning yoshlar ongida aks etishi va unga moslashuvi orqali namoyon bo‘ladi. Ana shu nazariyadan kelib chiqib, o‘zbek avlodlarini bosib o‘tgan tarixiy davr talablari asosida quyidagicha nomlashni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- 1917-yildan boshlab - daxriylikka qarshi kurashish davri avlodi;
- 1938-yildan boshlab - repressiya va ehtiyotkorlik davri avlodi;
- 1961-yildan boshlab - turg‘unlik va paxta hukmronligi davri avlodi;
- 1991-yildan boshlab - erkin fikr va mustaqillik davri avlodi;
- 2017-yildan boshlab - yangilanayotgan dunyoqarash davri avlodi.

O‘zbek xalqi avlodlarining tarixan bosib o‘tgan davrlaridagi ijtimoiy qarashlarini inobatga olgan holda ilgari surilgan yuqoridagi avlodlar tizimi bosqichlari dastlabki tavsiflardan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuvning kelgusida ko‘plab ilmiy munozaralar asosida yanada mukammallashtirilishi tabiiy hol hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. M.M.Mamatov. “Etnopsixologiya”. T. “Mumtoz so‘z”. 2019 y 75 b
2. G.M. Andreeva. Ijtimoiy psixologiya: Oliy ta’lim muassasalar uchun darslik6 Aspekt nashiryoti; 2009 y 363 b
3. A.V.Gavrilova. “Yangi avlod” mentalitetning ijtimoiy va psixologik xususiyatlari”. Udmurt unversiteti axborot nomasi. Falsafa seriyasi. Psixologiya. Pedagogika 2016y. 26 jild. №2.58 - 62 b
4. G.L Lebedeva. “ Zamonaviy rus jamiyatida avlodlar davomiligining ijtimoiy institsional asoslari” Ural Fedral unversitktining axborot nomasi. 3 - seriya: Ijtimoiy fanlar 2017 yil №4 (170) 57-68
5. N.Sh.Umarova “Shaxs iqsodiy ijtimoiylashuvi jarayonining transformatsiyalashuvi: avlodlar nazaryasidan amaliyot sari”. Zamonaviy ta’lim №8 (117) 2022y. Ilmiy - ommabop jurnal. 18b

MUNDARIJA

1.	ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ СОПРОВОЖДЕНИИ ПОДРОСТКОВ: ДИАГНОСТИЧЕСКИЙ И ПРОФИЛАКТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ Алимова Елена Геннадьевна	4
2.	G. BARDIYERNING TOLERANTLIK UCH KOMPLEKSLI MODELI TAVSIFI Bafayev Muxiddin Muxammadovich	14
3.	MAKTAB VA SINF MUHITINING KONTEKSTIDA O‘QUVCHILARNING ICHKI NAZORAT LOKUSINING RIVOJLANISH Celal Alğan	19
4.	OILADA OTA-ONA FARZAND MUNOSABATLARINI MILLIY TARBIY ASOSIDA TASHKIL QILISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI Jabborov Xazrat Xusenovich	27
5.	LIDERLIK PSIXOLOGIYA FANINING TADQIQOT PREDMETI SIFATIDA Jumanazarov Bekzod Begnazarovich	37
6.	SHAXS KOGNITIV ONTOGENEZI VA AVLODLAR NAZARIYASI L.S. Tursunov	45
7.	SOCIAL-PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF DEVELOPING HR MANAGERS PROFESSIONAL COMPETENCIES IN THE CONTEXT OF DIGITAL TRANSFORMATION M.M. Abdukarimov	53
8.	YUQORI SINF O‘QUVCHILARIDA SUITSIDAL XAVF DARAJASINI PASAYTIRISHDA PSIXOPROFILAKTIK VA PSIXOKORREKSION METODLARNING EKSPERIMENTAL TAHLILI Qodirova Shoxidabonu Sobirjon qizi	57
9.	OILAVIY QADRIYATLAR VA PROSOTSIAL XULQ-ATVOR SHAKLLANISHI Rasulova Dildora Shuhratovna	65
10.	QARISH JARAYONINING PSIXOFIZIOLOGIK VA EPIGENETIK MEXANIZMLARI: NAZARIY TAHLIL VA AMALIY YONDASHUVLAR Umirov Shaxrizod O‘rol o‘g‘li	69
11.	PSYCHOLOGICAL FACTORS IN THE FORMATION OF NEW MORAL VALUES IN STUDENTS Umirzakova Nargiza Ismailovna	74
12.	ВОЗРАСТНЫЕ ОСОБЕННОСТИ КРИМЕНАЛЬНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ Махмудова Д.А.	78

MUNDARIJA

13. KREDIT-MODUL TIZIMIDA TARBIYAVIY ISHLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI
Ibragimova Gulsanam Nematovna 82

14. TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH O‘QUV JARAYONI SIFATINI OSHIRISHNING ASOSIY OMILI
Jalilov Nodirjon Azamatovich 89

15. SUN’IY INTELLEKT VOSITALARIDAN TARBIYAVIY JARAYONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI
Karimova Barno Ergashevna 95

16. TA’LIM SIFATINI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA KVALIMETRIK PARAMETRLARINI TAKOMILLASHTIRISH
Karimova M.M. 102

17. CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK FANI O‘QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENSIYASI VA METODIK MAHORATI
Uzoqov A.A. 110

18. INNOVATSION TARBIYA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TALABALARNING MA’NAVIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH
Xabibullayeva Shaxlo Ulmesovna 116

19. ARAB DAVLATLARI TARIXSHUNOSLIGINI O‘QITISHNING METODIK ASOSLARI
Axmedov Sanjar Bektemirovich 122

20. XIX ASR IKKINCHI YARMIDA ZARAFSHON OKRUGIDA SOLIQ MUNOSABATLARI VA ROSSIYA IMPERIYASI MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATI
Bo‘tayev Jonibek Shodiyevich 129

21. MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZMDA URUSH QATNASHCHILARINI E’ZOZLASH SIYOSATI
Ishchanova Oybika Farhod qizi 136

22. AFG‘ONISTONDA XX ASRNING 90-YILLARDA HOKIMYAT UCHUN KURASHDA ETNOSIYOSIY OMILNING ROLI
Sharipov Shohruz Faxriddin o‘g‘li 143

23. JADIDLAR QARASHLARIDA XOTIN-QIZLAR TA’LIMI MASALASI
Xabibullo Xoji Muxammadyusuf Alisher o‘g‘li 151

24. RAHBAR NUTQINING KOMMUNIKATIV VA NUTQIY TA’SIRCHANLIK MUAMMOLARI
Xalilova Ruxsora Raupovna 158

Materiallar ko‘chirib bosilganda **“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar”** jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart.

***

Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.
Ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqiladi. Tahririyat a’zolarining jurnal ruknlariga mos kelmagan, ko‘rsatilgan talablarga mos bo‘lmagan maqolalarni nashr qilmaslik huquqi bor.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” jurnali 05.05.2026-yildan O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy litsenziya asosida faoliyat yuritadi.

***

Yuborilgan maqolalarning barchasi “Antiplagiat” tizimida tekshiriladi.
Jurnalda nashr etilgan materiallar va ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar mas’ul.

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
Tahririyat manzili: Toshkent shahar Sergili tumani Yangi Bunyodobod MFY 8-uy
https://fanlararotadqiqotlar.uz/

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI
AXBOROTLASHTIRISH VA TELEKOMMUNIKASIYALAR SOHASIDA NAZORAT INSPEKSIYASI

ГУВОҲНОМА

№1564147 Фаол

"FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
C-5669890

СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
312386344

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
05.05.2026дан - - чексиз

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Тошкент шаҳри, Сирғали тумани, Янги Бунёдобод МФЙ, Сергели 6а мавзеси, 8-уй, 148-хонадон

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирлиги ҳузуридаги Ахборотлаштириш ва телекоммуникациялар соҳасида назорат инспекцияси

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Гувоҳнома **№1564147**

Faoliyat turi

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Qo'shimcha ma'lumotlar

ҚЎШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Fanlararo ilmiy tadqiqotlar
Оммавий ахборот воситасининг тили	o'zbek, rus va ingliz tili
Оммавий ахборот воситасининг тури	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Республика миқёсида
Viloyat	
Тарқатилиш шакли	Онлайн

License SYSTEM

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA